



Abdurahmon Sa'diy

**AMALIY HAM
NAZARIY ADABIYOT
DARSLARI**

Abdurahmon Sa'diy

AMALIY HAM NAZARIY ADABIYOT DARSLARI

O'RTA MAKTABLAR UCHUN DARSLIK

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

adabiy
X asr
abiyot,
li, shu
ishlab
fiyaga
aznlar
lar va
avrda
tdagi
o ham
dabiy
yapti.
larni
shdi,
noq,
andi,
uht
hlab
nam
tida
siga
gida
ing
lari
qid
an,
diy
iq,
ga
iq

UO'K: 894.375
KBK: 83.3(50'z)
A 49

Abdurahmon Sa'diy.

Amaliy ham nazariy adabiyot darslari [Matn]: Darslik / Abdurahmon Sa'diy. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 180 b.

Abdurahmon Sa'diyning "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" asari XX asr boshlarida yaratilgan adabiyot nazariyasiga oid ilk manbalardan biri bo'lib, muallif ushbu asarini yaratgunga qadar ayni yo'nalishda bir qancha qo'llanma va kichik hajmdagi darsliklarni yaratgan edi. Darslik 1924-yilda nashr etilgan bo'lib, uning buyurtma asosidagi ikkinchi nashri 1925-yilda amalga oshirilgan. Qo'lingizdagi nashr darslikning har ikki nashr-nusxasiga tayanib, hukmningizga havola etilmogda.

Darslik adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, adabiy tanqidga qiziquvchi olimlar, tadqiqotchilar va filolog mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

Nashrga tayyorlovchi:

Orzigul Hamroyeva, filologiya fanlari doktori, professor

Mas'ul muharrir:

Nurboy Jabborov, filologiya fanlari doktori, professor

Tagratchilar:

Hamidulla Boltaboyev, filologiya fanlari doktori, professor

Zaynobiddin Abdurashidov, filologiya fanlari doktori, professor

Darslik Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2023-yil 23-noyabrda 4-sonli majlisi bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-336-7

© Abdurahmon Sa'diy, 2025.
© Orzigul Hamroyeva, 2025.
© "Bookmany print" nashriyoti, 2025.

Adabiyot nazariyasiga oid ilk darslik

Adabiyotning yangilanishi, rivojlanishi, taraqqiy etishi adabiy qonuniyatlarni, nazariyalarni shakllanishiga asos bo'ladi. XX asr boshlari har jihatdan adabiy ta'sirni boshdan kechirdi: badiiy adabiyot, adabiy tur va janrlar, ularning poetik xususiyatlari yangilandi, shu asosdan adabiyot nazariyasida ularning nazariy qoidalarini ishlab chiqish zarurati tug'ildi. Mumtoz an'analar: aruz, badiiyat, qo'lyozga oid poetik tahlil barmog, oq she'r, sochma, mansura kabi yangi vaznlar imkoniyatiga qarab o'zgarar bordi. An'anaviy mavzular, obrazlar va ularga yuklangan vazifalar ham keskin o'zgardi. Adabiyot har davrda ijtimoiy hodisa sanalib kelgan. Unda ijodkor tuyg'ulari jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy vaziyatga qarab akslanadi. Shu sabab ham ijodkor asarlarining mohiyati va obrazlar tizimi asosida davr adabiy muhitini belgilash tamoyili bugungi kungacha qadar o'zini oqlab kelyapti.

XX asr boshlari adabiy hayoti bir qancha adabiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi: adabiyotga Sharqdan ko'ra G'arbning ta'siri oshdi, adabiy tur va janrlar o'zgardi, yangilandi, aruz vazni o'rniga barmog, sochmalar kirib keldi, obrazlar va shoirning ifoda uslubi yangilandi, she'rnga munosabat o'zgardi. Shu natija o'laroq yangi adabiy muhit shakllandi va bu muhit, undagi adabiy asarlar qonuniyatini ishlab chiqish zarurati tug'ildi. Abdurahmon Sa'diyning "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" darsligi ana shu ehtiyoj natijasi sifatida dunyoga keldi. Darslik o'z davri uchun adabiyot nazariyasiga bag'ishlangan mukammal manba sifatida o'zbek adabiyotshunosligida muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan Abdurahmon Sa'diyning "Amaliy ham nazariy adabiyot darslari" darsligini o'ziga xos jihatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Olimning adabiyotshunoslik, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid borasidagi fikrlari shunchaki fikrlar emas, yillar davomida o'rganilgan, tadqiq etilgan tadqiqotlarning xulosaviy qismidir. Olimning adabiy tahlil borasidagi 20 dan ortiq, adabiyot tarixiga oid 30 dan ortiq, adabiyot nazariyasiga oid 30 dan ortiq, adabiy tanqid borasidagi 30 ga yaqin, pedagogika oid 30 ga yaqin, tishunoslikka oid 10 dan ortiq